

"O'zkimyosanoat" AJ va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamkorligi kengaytirilmoqda

// 29 September 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-ilmiy-tadqiqot-tashkilotlari-hamkorligi>



"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish va ilmiy yutuqlarini sanoat tarmog'iga keng joriy etish maqsadida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Mazkur reja doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Umumiy va noorganik kimyo instituti, Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti hamda Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali bilan amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Xususan, tarmoqda qabul qilingan dastur va strategiyalar, istiqbolli investitsiya loyihalari, mahsulotlarning qo'shilgan qiymatini oshirish, global bozordagi tendensiyalarni o'rganish, energiya samaradorligini ta'minlash, shuningdek, qo'shni va istiqbolli bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, yangi bozorlarga kirish talablari va mavjud savdo to'siqlarini o'rganish, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish ham hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda "O'zkimyosanoat" AJ Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi vakillari Toshkent kimyo-texnologiya institutida bo'lib, chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish hamda qo'shma loyihalarni shakllantirish masalalarini muhokama qildi.

Uchrashuvda sanoat korxonalarining amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'naltirish, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish bo'yicha hamkorlikni izchil davom ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.